

KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING RIVOJLANISH NAZARIY ASOSLARI VA XORIJIY TAJRIBALARI

Mirazimova Zulfiya

Bank–moliya akademiyasi magistranti

Annotatsiya

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Ushbu maqolada AQSh, Germaniya, Yaponiya, Janubiy Koreya va Buyuk Britaniya tajribasi asosida kichik biznesni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirishning samarali strategiyalari tahlil qilinadi. Shuningdek, O'zbekiston sharoitida kichik biznesning iqtisodiyotdagi ahamiyati va uning rivojlanishi uchun mavjud imkoniyatlar ko'rib chiqiladi. SWOT tahlili orqali kichik biznesning kuchli va zaif tomonlari, imkoniyatlari hamda tahdidlariga baho beriladi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, kichik biznesni qo'llab-quvvatlashning huquqiy, moliyaviy va innovatsion mexanizmlarini takomillashtirish orqali iqtisodiy o'sishga erishish mumkinligi aniqlanadi.

Kalit so'zlar: kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, iqtisodiy rivojlanish, xorijiy tajriba, davlat qo'llab-quvvatlashi, SWOT tahlil, innovatsiya, moliyalashtirish.

Аннотация

Малый бизнес и частное предпринимательство играют важную роль в устойчивом развитии национальной экономики. В данной статье анализируются эффективные стратегии поддержки и развития малого бизнеса на основе опыта США, Германии, Японии, Южной Кореи и Великобритании. Кроме того, рассматривается значение малого бизнеса в экономике Узбекистана и существующие возможности для его развития. С помощью SWOT-анализа оцениваются сильные и слабые стороны малого бизнеса, а также его возможности и угрозы. По результатам исследования выявлено, что совершенствование правовых, финансовых и инновационных механизмов поддержки малого бизнеса способствует экономическому росту.

Ключевые слова: малый бизнес, частное предпринимательство, экономическое развитие, зарубежный опыт, государственная поддержка, SWOT-анализ, инновации, финансирование.

Abstract

Small business and private entrepreneurship play a crucial role in the sustainable development of the national economy. This article analyzes effective strategies for supporting and developing small businesses based on the experiences of the USA, Germany, Japan, South Korea, and the United Kingdom. Additionally, the significance of small businesses in Uzbekistan's economy and the existing opportunities for their growth are examined. A SWOT analysis is conducted to assess the strengths, weaknesses, opportunities, and threats facing small businesses. The research findings indicate that improving legal, financial, and innovative support mechanisms can contribute to economic growth.

Keywords: small business, private entrepreneurship, economic development, foreign experience, government support, SWOT analysis, innovation, financing.

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligini qo‘lga kiritganidan boshlab, iqtisodiyotda “lokomotiv” vazifasini bajarish, iqtisodiy faollikni ta‘minlash mezonini hisoblangan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratib kelmoqda. Zero, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev ta‘kidlaganlaridek: “Bizning bosh vazifamiz – tadbirkorlikni rivojlantirishni rag‘batlantirish uchun eng qulay shart-sharoitlarni yaratishni ta‘minlashdir. Biznes bilan shug‘ullanayotgan har kishida davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishiga astoydil ishonch bo‘lishi shart. Odamlar biznes bilan shug‘ullanishdan manfaatdor bo‘lishi zarur. Tadbirkor va xalq boy bo‘lsa – mamlakat ham boy bo‘ladi” [].

Iqtisodiyotning mazkur sektori ulushi hamda ahamiyatining kengayishiga mamlakatda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini rag‘batlantirish, davlat tomonidan keng miqyosda qo‘llab-quvvatlash, ishbilarmonlik muhitini takomillashtirish, xususiy mulk huquqlarini kafolatlash tizimini yaratish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar va chora-tadbirlar sabab bo‘lmoqda. Natijada, kichik biznes va tadbirkorlik mamlakatimiz milliy iqtisodiyotida yetakchi kuchga aylanib bormoqda.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik kishilardagi tashabbuskorlik, tadbirkorlik hamda mulkka egalik qilish qobiliyatlarini ro‘yobga chiqarish vositalaridan biridir. O‘rta mulkdorlar sinfini shakllantirishda, aholini ish bilan ta‘minlash va pirovardida milliy farovonlikni oshirish esa ushbu sektorning qay darajada rivojlanganligiga bog‘liqdir.

ADABIYOTLAR SHARHI

Tadbirkorlik faoliyati azaldan iqtisod va moliya sohasi olimlarining diqqat-e‘tiborida bo‘lib kelgan. Tadbirkorlik tushunchasi XVI asrdan boshlab iqtisodchilar, ruhshunoslar, siyosatshunoslar fikrini o‘ziga jalb eta boshlagan. J. B. Sey, A. Marshall, V. Zombramb, Y. Shumpeter, F. Noytlar tadbirkorlik ilmining asoschilari hisoblanadi va “tadbirkorlik” kategoriyasini ilmiy muomalaga kiritishda ularning xizmatlari kattadir. “Tadbirkorlik” kategoriyasiga birinchi ilmiy ta‘rifni XVIII asr boshida ingliz olimi R. Kantilon bergan. Uning ta‘kidlashicha, “tadbirkor — bu foyda olish maqsadida o‘zlarini o‘tga-choqqa urib bo‘lsa ham, bozor ayirboshlashga intiluvchi kishilarning yangi qatlamidir”. U tadbirkorlikni bozor talabi va taklifi o‘rtasidagi farqni ilg‘ab, foyda olish uchun harakat qilish xususiyati deb bilgan. Bu — arzonga olib, qimmatga sotish imkoniyatini anglatadi. Ushbu imkoniyatdan foydalana olgan va tavakkalchilik bilan ish yurituvchilarni “tadbirkorlar” deb atagan. Demak, R. Kantilonning fikricha, tadbirkor — bu bozor imkoniyatlarini ko‘ra oladigan shaxsdir. U foyda olish uchun ushbu imkoniyatlardan tadbirkorlik orqali foydalanadi. R. Kantilon tavakkalchilikni tadbirkorlikning eng muhim ko‘rsatkichi deb hisoblagan.

A. Smit, D. Rikardo, Dj. S. Malyalar esa tadbirkorlik mohiyatini tadqiq etishda uning alohida vazifalarini amalda ajratmagan. Ular ishlab chiqarish va kapital

qo'yishni avtomatik jarayon deb baholagan, hamda har qanday ko'ra bilish va tavakkalchilikni baholash muhim qarorlar qabul qilishni talab etmaydi, deb hisoblashgan.

Hozirgi zamon iqtisodchilari amaliyotda "tadbirkor", "kichik biznes" va "kichik tadbirkorlik" tushunchalarini bir xil ma'noga ega, deb biladilar. Iqtisodiy adabiyotlarda bu tushunchalarga olimlar tomonidan berilgan turlicha ta'riflar mavjud. Ba'zilarida "kapitalizmga biznes bo'lmagan", degan fikr uchraydi¹. Axir bu — go'yoki "iqtisodiyot bo'lmagan" degan gap bilan barobardir! Ayrim manbalarda esa "biznes kategoriyasi kundalik ilmiy muomalaga kapitalizmga o'tish davrida kiritilgan", deb tushuntiriladi². Iqtisodchilardan S. S. G'ulomov, A. F. Dogil, B. A. Semenov fikricha, "Biznes — tadbirkorlikka nisbatan keng ma'noga ega. Tadbirkorlik faoliyati biznes faoliyatining bir shakli sifatida iqtisodiyotning turli sohalarida amalga oshiriladi". I. A. Arxipov esa "Biznes — foyda olish uchun bo'lgan ishlab chiqarish, bandlik va tadbirkorlik faoliyatidir", deb hisoblaydi³.

METODOLOGIYA

Ushbu maqolada kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanish nazariy asoslari hamda xorijiy tajribalari tahlil qilinishi uchun quyidagi tadqiqot metodlaridan foydalaniladi:

Birinchidan, tahliliy-metodik yondashuv yordamida ilmiy adabiyotlar, akademik maqolalar va xalqaro tajribalar o'rganiladi. Ushbu metod kichik biznesning iqtisodiy rivojlanishga ta'siri, uning asosiy xususiyatlari va rivojlanish yo'nalishlarini aniqlash imkonini beradi.

Ikkinchidan, taqqoslash va benchmarking usuli orqali turli davlatlarning kichik biznesni qo'llab-quvvatlash bo'yicha strategiyalari tahlil qilinadi. Bu esa muvaffaqiyatli tajribalarni o'zbek modeli bilan solishtirish va eng samarali yechimlarni moslashtirish imkonini yaratadi.

Uchinchidan, empirik tadqiqot (so'rovnomalar va intervyular) yordamida kichik biznes vakillari, tadbirkorlar va iqtisodiy ekspertlar bilan muloqot o'tkazilib, amaliy ma'lumotlar yig'iladi. Ushbu metod kichik biznes oldida turgan muammolar, ularning sabablarini hamda rivojlanish imkoniyatlarini aniqlashga xizmat qiladi.

Shuningdek, SWOT tahlili orqali kichik biznesning kuchli va zaif tomonlari, imkoniyatlari hamda tahdidlarini aniqlash rejalashtirilgan. Kuchli tomonlar sifatida biznesning moslashuvchanligi va innovatsion rivojlanish potentsiali ta'kidlanadi, zaif tomonlar esa moliyaviy resurslarning cheklanganligi va qonunchilikdagi murakkabliklar bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Imkoniyatlar sifatida davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash dasturlari va xalqaro tajribalardan foydalanish imkoniyati ko'riladi, tahdidlar esa raqobat muhitining keskinlashuvi va iqtisodiy beqarorlik bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

¹ Рыночная экономика в 2-х томах. – М.: СОМИТЕХ. 2016 – с. 156.


² Гулямов С.С., Догиль А.Ф., Семенов Б.А. Предпринимательство и малый бизнес. – Т. 2017 – с 36.

³ Архипов И.А. Экономический словарь. – М.: Проспект, 2019. – с. 52.

Ushbu metodlar asosida kichik biznesning rivojlanishiga ta'sir qiluvchi asosiy omillar aniqlanadi, samarali xorijiy tajribalar tahlil qilinadi va O'zbekiston sharoitida qo'llash mumkin bo'lgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

TAHLIL VA NATIJLAR

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning afzalliklari innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish hajmining oshishi, raqobat muhitining shakllanishi, real va moliya sektorlarining mutanosib faoliyat ko'rsatishini ta'minlashi, aholining o'rta qatlamini shakllantirishi hamda iste'mol bozorini tovarlar va yangicha xizmat turlari bilan to'ldirish orqali byudjetga soliq tushumlari hajmini keskin oshirishga ta'sir ko'rsatishida namoyon bo'ladi (1-rasm).



1-rasm. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish afzalliklari¹

O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, uning faoliyatiga qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadidagi chora-tadbirlar yil sayin keng miqyosda amalga oshirilmoqda. Mulkdorlarning o'rta sinfini shakllantirish, ichki bozorni raqobatbardosh va sifatli mahsulotlar bilan to'ldirish, yangi ish o'rinlari yaratish va shu asosda aholi daromadlarini ko'paytirish hamda farovonligini oshirishning muhim omili, mamlakat taraqqiyoti yo'lidagi faol harakatlantiruvchi kuch sifatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanmoqda.

Umuman olganda, iqtisodiy rivojlanishning hozirgi bosqichida, ya'ni iqtisodiyotda innovatsion va raqamli texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati

¹ Ilmiy adabiyotlardagi ma'lumotlarni umumlashtirilgan muallif ishlanmasi.

tobora ortib borayotgan hozirgi sharoitda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakatda iqtisodiy faollikni ta'minlashning ustuvor yo'nalishlaridan biridir.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida oxirgi ikki yarim yilda Prezidentning ellikdan ortiq farmon va qarorlari qabul qilingan. Jumladan, hozirgi pandemiya davrida ham 10 ga yaqin farmon va qarorlar e'lon qilindi. Xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalarni olish va boshqa ko'plab xizmatlar bo'yicha tartib-qoidalar soddalashtirildi.

Mamlakatimiz va xorijlik iqtisodchi olimlarning xizmat ko'rsatish sohasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, ularning faoliyatini baholash mezonlariga bag'ishlangan qator ilmiy ishlari mavjud. AQShda monetar siyosatning samarali amalga oshirilishi asoschilaridan biri M. Fridman daromadlarning notengligi omillari statistik taqsimotni aniq ko'rsatmasligini ta'kidlaydi. Uning fikriga ko'ra, iste'mol jihatidan daromadlarning taqsimoti ularni yuzaga keltiruvchi sabablarga bog'liq va u buni asoslab beradi.

Pandemiya sharoitida M. Fridman fikrini to'ldirib, daromadlar notengligining yanada murakkablashgani va chuqurlashgani kuzatilmoqda. Bunday sharoitda tadbirkorlik muhitini yaxshilash bo'yicha tizimli islohotlarni amalga oshirish zarurati tug'iladi.

Mamlakatimizda koronavirus infeksiyasi tarqalishiga qarshi kurashish davrida aholini ijtimoiy himoya qilishni kuchaytirish, iqtisodiy tarmoqlarning barqaror faoliyatini ta'minlash hamda ayrim xo'jalik yurituvchi subyektlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-apreldagi "Koronavirus pandemiyasi davrida aholi, iqtisodiyot tarmoqlari va tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5978-son¹li Farmoni qabul qilingan. Ushbu farmonda bajarilishi lozim bo'lgan bir qator taklif va tadbirlar belgilab berilgan.

Ijtimoiy va davlat sektoridagi innovatsiyalar sohasi mutaxassisi B. Rajabovning koronavirus pandemiyasining O'zbekiston iqtisodiyotiga ta'siri haqida yozgan maqolasida: "...dunyo iqtisodiyotiga yetkazilgan zararni inqiroz cho'qqisidan o'tganidan so'ng, umumiy tarzda hisoblash mumkin bo'ladi. Iqtisodiyotga pandemiyaning o'zi emas, balki u bilan bog'liq cheklovlar salbiy ta'sir ko'rsatadi", deb fikr bildirgan. Biroq, ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish natijalari shuni ko'rsatadiki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini rivojlantirish masalalari xizmat ko'rsatish sohasi bo'yicha yetarlicha tadqiq etilmagan².

Jahon amaliyotida milliy iqtisodiyotlarning barqaror rivojlanishida xizmat ko'rsatish sohasida kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari faoliyati muhim o'rin egallab, iqtisodiy hamda ijtimoiy muammolarni hal etishda yetakchi rol o'ynaydi. Eurostat tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilda Italiyada 3,7 mln, Fransiyada 2,9 mln, Ispaniyada 2,4 mln, Germaniyada 2,3 mln va Buyuk Britaniyada 1,9 mln ta

¹ <https://lex.uz/ru/docs/-4780475>

² Rajabov. B. Maqola. www.kun.uz 10.04.2020 y

kichik biznes subyektlari faoliyat ko'rsatgan. Ushbu sohada Germaniyada 17,8 mln, Italiyada 11,2 mln, Buyuk Britaniyada 10,3 mln, Fransiyada 9,0 mln va Ispaniyada 8,0 mln aholi doimiy ish bilan band bo'lgan¹.

Shu sababli ham jahonning rivojlangan mamlakatlarida barqaror va yuqori iqtisodiy o'sishni ta'minlashda tadbirkorlik faoliyati imkoniyatlaridan kengroq foydalanishga katta ahamiyat qaratilmoqda. Sababi, bandlik, ijtimoiy himoya, mahsulot va xizmatlarning yangi turlarini ishlab chiqarishda bu soha muhim ahamiyat kasb etadi. Jahon iqtisodiyotida xizmat ko'rsatish sohasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari faoliyatini rivojlantirish jarayonlarining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish va samaradorligini oshirish, joylarda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish, ularning tashqi iqtisodiy faoliyatdagi ishtirokini kuchaytirish, aholini ish bilan ta'minlash va daromadlarini oshirish borasidagi imkoniyatlardan to'laqonli foydalanish bugungi kunda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Aholini xizmat ko'rsatish sohasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka jalb qilish orqali nafaqat bandlikni ta'minlash, balki eng asosiysi — ularning turmush darajasini yaxshilash bugungi globallashuv davrining ustuvor vazifalaridandir. Shu sababdan, ko'plab rivojlangan davlatlar xizmat ko'rsatish sohasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishini qo'llab-quvvatlamoqda. Chunki kichik biznes va xususiy tadbirkorlik o'rta sinf shakllanishining asosi bo'lib, uning mavjudligi va hajmi davlatning iqtisodiy rivojlanish darajasini belgilaydi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik zamonaviy bozorni boshqarish tizimining asosiy elementi bo'lib, rivojlangan bozor iqtisodiyoti mavjudligini kafolatlaydi. Iqtisodiyoti rivojlangan davlatlarning byudjetini to'ldirishning asosiy vositasi — kichik biznes va xususiy tadbirkorlikdan olinadigan soliq tushumidir. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik raqobat, iqtisodiy tashabbuskorlik va mamlakat fuqarolarining faolligini oshirishga xizmat qiladi. Bu esa tovarlar va xizmatlar narxlarining keskin oshishining oldini oladi, tadbirkorlarni mahsulot sifatini doimiy ravishda yaxshilashga va yangi texnologiyalarni joriy etishga undaydi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash ishsizlik muammosini hal qilish usullaridan biri hisoblanadi — bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda bu sohada fuqarolarning 50 dan 90 foizigacha mehnat qiladi.

Rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida YaIMda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik salmoqli ulushni tashkil etadi. Shu sababli ham ushbu soha subyektlariga davlat tomonidan turli xil imtiyozlar va rag'batlar berilib, ular har tomonlama qo'llab-quvvatlab kelinmoqda. Masalan, Fransiyada kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish quyidagicha amalga oshiriladi²:

- Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini tizimli ravishda zaruriy axborotlar bilan ta'minlash.
- Ularning ichki bozorlarda raqobatbardoshligini ta'minlash va mahsulotlarni sotishda amaliy ko'mak berish.

¹ Eurostat <http://xn--80aplem.xn-p1ai/analytics/Malyj-i-srednij-biznes-v-stranahEvropy>

² <https://www.imf.org/external/pubs/ft/sdn/2015/sdn1504.pdf>

- Eksport salohiyatini oshirish va uni ragʻbatlantirish.
- Moliyaviy yordam koʻrsatish.

Rivojlangan mamlakatlarda biznes mutaxassislarini tayyorlashga alohida eʼtibor qaratiladi. Baʼzi mutaxassislarning fikricha, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasidagi taʼlim hattoki moliyaviy kredit ajratishdan ham muhimroq ahamiyatga ega. Kanadada tadbirkorlikni qoʻllab-quvvatlashga qaratilgan maqsadli dasturlar amalga oshirilib, boshqaruv boʻyicha koʻmak (axborot, texnik, marketing) xizmati yoʻlga qoʻyilgan. Kanada Bandlik va Emigratsiya vazirligi tizimidagi bandlik markazlari kichik korxonalariga ishchilarni tanlash va yollash borasida yordam koʻrsatadi, turli masalalar — xususan, rejalashtirish, ijtimoiy sugʻurta va boshqalar boʻyicha maslahatlar beradi. Kanada Federal banki esa 75 kishigacha xodimga ega korxonalariga maslahat yordami koʻrsatadi. Bu yerda mijoz muammolari tahlil qilinib, ularning yechimlari ishlab chiqiladi hamda ular bilan birga amalga oshirish ishlari olib boriladi. Shuningdek, strategik va moliyaviy rejalashtirishga oid xizmatlar koʻrsatib boriladi¹.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiyotda band boʻlganlar sonidagi ulushi turli xorijiy davlatlar koʻrsatkichlari bilan taqqoslanganda, Yaponiyada bu koʻrsatkich 78,0 foizni, Italiyada 71,0 foizni, Germaniyada 69,5 foizni, Buyuk Britaniyada 56,0 foizni, AQShda 54,0 foizni, Rossiyada esa 25,6 foizni tashkil etganini koʻrishimiz mumkin.

1990-yillarning boshlarida AQShda korxonalarining 26,15 foizi oʻta mayda, 28,4 foizi — mayda korxonalar boʻlgan. Yaponiyada bu mos ravishda 49,4 foiz va 28 foizni, Buyuk Britaniyada 26 foiz va 23 foizni, Fransiyada esa 32 foiz va 28 foizni tashkil qilgan. Bu yerda oʻta mayda korxonalariga 19 nafargacha, mayda korxonalariga esa 99 kishigacha ishchi band boʻlgan firmalar kiradi².

AQShda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining muammolari bilan ikki muhim tashkilot — Kichik biznes maʼmuriyati (KBM) va Kichik biznes ishlari boʻyicha Kongress qoʻmitasi shugʻullanadi. Ularda 4-5 mingga yaqin xodim faoliyat yuritadi. Ushbu tuzilmalar faqatgina kichik va oʻrta korxonalarining muammolarini hal etishga ixtisoslashgan. KBM mamlakatda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish hamda turli moliyaviy institutlarning shakllanishi uchun qulay sharoitlar yaratadi.

Unda quyidagi asosiy dasturlar ishlab chiqilgan:

- Kichik korxonalarini moliyaviy qoʻllab-quvvatlash dasturi (7 ta dasturni oʻz ichiga oladi, “7(a) kafolatli kreditlar” dasturi tayanch dastur hisoblanadi).
- Innovatsion kichik korxonalarini qoʻllab-quvvatlash dasturi (3 ta dastur).
- Maslahat berish, oʻqitish, texnik yordam va axborot xizmatlari dasturi (10 ta dastur).
- Tabiiy ofatlarda yordam dasturi (6 ta dastur).

¹<https://stat.uz/uz/432-analiticheskie-materialy-uz/2031-o-zbekistonrespublikasida-kichik-biznes-va-xususiy-tadbirkorlikning-rivojlanishi>.

²<https://stat.uz/uz/432-analiticheskie-materialy-uz/2031-o-zbekistonrespublikasida-kichik-biznes-va-xususiy-tadbirkorlikning-rivojlanishi>.

- Kichik korxonalarining eksport imkoniyatlarini rivojlantirish dasturi (4 ta yoʻnalish).

- Milliy kamchiliklarga ega va manfaatlari toʻsilgan guruhlarini qoʻllab-quvvatlash dasturi (7 ta dastur).

- Ayol tadbirkorlarni qoʻllab-quvvatlash dasturi (3 ta dastur).

AQShda kichik mulkchilik shaklini rivojlantirish va qoʻllab-quvvatlash boʻyicha jami 61 ta maxsuslashtirilgan dastur ishlab chiqilgan. Dunyoning boshqa hech bir mamlakatida bunday qudratli va keng qamrovli dasturlar mavjud emas.

Bundan tashqari, kichik va oʻrta tadbirkorlikni soliq sohasida ragʻbatlantirish boʻyicha KBM tajribasi alohida eʼtiborga loyiq. Bu tajriba quyidagilarga asoslanadi: chegaralangan soliq stavkalarining bosqichma-bosqich pasaytirilishi, tor soliq bazasi doirasida soliqqa tortishni kamaytirish hamda soliq imtiyozlaridan keng foydalanish. Natijada sanoat, xizmatlar sohasi va savdo sohasida investitsiyalar oqimi taʼminlanadi¹.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik dunyo miqyosida iqtisodiy oʻsish va bandlikni oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Turli mamlakatlar kichik biznesni qoʻllab-quvvatlash boʻyicha oʻziga xos strategiyalarni ishlab chiqqan. Quyida beshta xorijiy mamlakat tajribasi tahlil qilinadi:

1. AQSh tajribasi. AQSh kichik biznesni rivojlantirish boʻyicha eng ilgʻor tizimga ega davlatlardan biri hisoblanadi. *Small Business Administration* (SBA) tashkiloti tadbirkorlarga imtiyozli kreditlar, moliyaviy yordam va maslahat xizmatlarini taklif etadi. Shuningdek, kichik biznes uchun maxsus soliq imtiyozlari joriy qilingan. AQShda startaplarni qoʻllab-quvvatlash uchun venchur kapital bozori va inkubator dasturlari rivojlangan. Hukumatning “Buy American” dasturi kichik biznesning davlat buyurtmalarida ishtirok etishiga imkon yaratadi.

2. Germaniya tajribasi. Germaniyada kichik biznes asosan “Mittelstand” modeli asosida rivojlangan. Bu model kichik va oʻrta korxonalarini innovatsiyalarga yoʻnaltirish, ularga uzoq muddatli moliyaviy yordam koʻrsatish va eksport imkoniyatlarini kengaytirishni oʻz ichiga oladi. *KFW Development Bank* tomonidan kichik biznesga past foizli kreditlar taqdim etiladi. Shuningdek, kasbiy taʼlim va amaliyot tizimi yaxshi rivojlangan boʻlib, u ishchilar malakasini oshirish va tadbirkorlik faoliyatiga tayyorlashga yordam beradi.

3. Yaponiya tajribasi. Yaponiya kichik biznesni qoʻllab-quvvatlash uchun “Keiretsu” tizimidan foydalanadi, bu esa yirik korxonalar va kichik biznes oʻrtasidagi mustahkam hamkorlikni taʼminlaydi. *Japan Finance Corporation* (JFC) kichik biznesni moliyaviy qoʻllab-quvvatlash boʻyicha keng dasturlarni amalga oshiradi. Hukumat texnologik startaplarni ragʻbatlantirish va ilgʻor ishlab chiqarish texnologiyalarini joriy etish uchun grantlar ajratadi. Bundan tashqari, tadbirkorlikni rivojlantirish uchun maxsus texnoparklar va inkubator markazlari tashkil etilgan.

4. Janubiy Koreya tajribasi. Janubiy Koreya kichik biznesni qoʻllab-quvvatlash maqsadida “Creative Economy” strategiyasini amalga oshiradi. Hukumat tomonidan

¹ Sh.A.Sultonov. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik: hududiy muammolari va yechimlari. T. 2023. “Navroʻz” nashriyoti DUK. 103 b.

Small and Medium Business Administration (SMBA) tashkil etilgan bo‘lib, u startap va innovatsion loyihalarni moliyaviy jihatdan rag‘batlantiradi. *KOSDAQ* fond bozori orqali kichik biznes kompaniyalari o‘z aksiyalarini bozorga chiqara oladi. Shuningdek, tadbirkorlikni rivojlantirish uchun biznes inkubatorlari, soliq imtiyozlari va yirik korxonalar bilan hamkorlik tizimi yo‘lga qo‘yilgan.

5. Buyuk Britaniya tajribasi. Buyuk Britaniyada kichik biznesni qo‘llab-quvvatlashning muhim yo‘nalishlaridan biri soliq imtiyozlari va davlat grantlari tizimidir. *British Business Bank* kichik va o‘rta korxonalariga past foizli kreditlar taqdim etadi. Shuningdek, *Enterprise Investment Scheme* (EIS) dasturi investorlarni kichik biznesga sarmoya kiritishga rag‘batlantiradi. Britaniya hukumati startaplarni qo‘llab-quvvatlash uchun *Innovate UK* dasturini ishlab chiqqan bo‘lib, bu dastur orqali texnologik rivojlanishga hissa qo‘shayotgan kichik korxonalar moliyaviy yordam oladi.

Yuqoridagi besh davlatning tajribasi shuni ko‘rsatadiki, kichik biznesni rivojlantirish uchun quyidagi asosiy omillar muhim:

- Moliyaviy qo‘llab-quvvatlash (imtiyozli kreditlar, grantlar, soliq imtiyozlari)
- Innovatsiyalarni rag‘batlantirish va texnologik rivojlanish
- Davlat va xususiy sektor hamkorligini mustahkamlash
- Kichik biznes va yirik kompaniyalar o‘rtasidagi integratsiyani rivojlantirish
- Tadbirkorlarni tayyorlash va malakasini oshirish dasturlarini yo‘lga qo‘yish

O‘zbekiston uchun ushbu tajribalarni tahlil qilib, mahalliy sharoitga moslashtirish kichik biznesning barqaror rivojlanishini ta‘minlashga yordam berishi mumkin (1-jadval).

1-jadval

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning SWOT tahlili¹

| SWOT | Tahlil |
|-------------------------------------|--|
| Kuchli tomonlar (Strengths) | - Iqtisodiy rivojlanish va bandlikka katta hissa qo‘shadi. - Moslashuvchanlik va innovatsiyalarga tez moslashish qobiliyati. - Raqobatbardoshlikni oshirish va yangi bozorlarni kashf qilish imkoniyati. - Davlat tomonidan berilayotgan qo‘llab-quvvatlash dasturlari (soliq imtiyozlari, grantlar, kreditlar). - Mahalliy resurslardan samarali foydalanish. |
| Zaif tomonlar (Weaknesses) | - Moliyaviy resurslarning yetishmovchiligi va kredit olishda qiyinchiliklar. - Texnologik innovatsiyalarning pastligi va raqamli transformatsiyaning sekin kechishi. - Yirik korxonalar bilan raqobat qilishda qiyinchilik. - Mutaxassislar va malakali ishchi kuchining yetishmovchiligi. - Biznes yuritish jarayonida huquqiy va byurokratik to‘siqlar. |
| Imkoniyatlar (Opportunities) | - Davlat va xalqaro tashkilotlar tomonidan qo‘llab-quvvatlash dasturlarining kengaytirilishi. - Raqamli texnologiyalar va onlayn savdoning rivojlanishi. - Eksport imkoniyatlarining ortishi va xalqaro bozorlarga chiqish. - Startap ekotizimining rivojlanishi va venchur kapitalning o‘sishi. |

¹ Muallif ishlanmasi

| SWOT | Tahlil |
|----------------------------|--|
| | - Ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohaslarida yangi texnologiyalardan foydalanish imkoniyati. |
| Tahdidlar (Threats) | - Iqtisodiy beqarorlik va inflyatsiya. - Soliq va huquqiy tizimning o'zgaruvchanligi. - Global pandemiyalar yoki boshqa kutilmagan inqirozlar. - Katta korporatsiyalar va xalqaro kompaniyalarning kuchli raqobati. - Moliyaviy bozorlarning noaniqligi va kredit stavkalarining yuqoriligi. |

Ushbu SWOT tahlili kichik biznesning hozirgi sharoitdagi asosiy xususiyatlarini aniqlashga yordam beradi va rivojlanish strategiyalarini shakllantirish uchun muhim asos bo'lib xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik har qanday mamlakat iqtisodiyotining muhim tayanchi bo'lib, bandlik darajasini oshirish, innovatsiyalarni rivojlantirish va milliy iqtisodiyotni barqarorlashtirishda katta rol o'ynaydi. Dunyo tajribasi shuni ko'rsatadiki, muvaffaqiyatli rivojlangan davlatlarda kichik biznesni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan samarali dasturlar ishlab chiqilgan bo'lib, ular moliyaviy yordam, soliq imtiyozlari, biznes inkubatorlari va innovatsion texnologiyalarni joriy etishga asoslangan.

AQSh, Germaniya, Yaponiya, Janubiy Koreya va Buyuk Britaniya tajribalaridan kelib chiqib, kichik biznesning rivojlanishi uchun quyidagi asosiy omillar hal qiluvchi ahamiyatga ega:

- Davlat tomonidan imtiyozli kreditlar, grantlar va soliq yengilliklari taqdim etilishi.
- Innovatsion ekotizimning rivojlanishi va startaplarni qo'llab-quvvatlash.
- Katta korporatsiyalar va kichik biznes o'rtasidagi hamkorlikning mustahkamlanishi.
- Texnologik rivojlanish va raqamli transformatsiyaning jadallashishi.
- Kichik biznesning xalqaro bozorga chiqishini qo'llab-quvvatlash va eksport imkoniyatlarini kengaytirish.

O'zbekiston sharoitida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiyotdagi ulushi sezilarli bo'lib, u bandlikning asosiy qismini ta'minlaydi. Biroq, moliyaviy resurslarning cheklanganligi, byurokratik to'siqlar va texnologik transformatsiyaning sustligi kabi muammolar mavjud. Xorijiy tajribalarni inobatga olgan holda, kichik biznesni rivojlantirish strategiyasini yanada takomillashtirish orqali iqtisodiy o'sishni jadallashtirish va tadbirkorlar uchun qulay muhit yaratish mumkin.

Shunday qilib, samarali huquqiy-me'yoriy baza yaratish, biznes subyektlarini qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish va innovatsion biznes modellarini keng joriy etish orqali kichik biznes O'zbekistonning barqaror iqtisodiy rivojlanishiga yanada katta hissa qo'shadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. T.: O'zbekiston. 2017. 453-b.

2. Рыночная экономика в 2-х томах. – М.: СОМТЕХ. 2016 – с. 156.
3. Гулямов С.С., Догиль А.Ф., Семенов Б.А. Предпринимательство и малый бизнес. – Т. 2017 – с 36.
4. Архипов И.А. Экономический словарь. – М.: Проспект, 2019. – с. 52.
5. Sh.A.Sultonov. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik: hududiy muammolari va yechimlari. T. 2023. “Navro‘z” nashriyoti DUK. 103 b.
6. Rajabov. B. Maqola. www.kun.uz 10.04.2020 y
7. Eurostat <http://xn--80aplem.xn-p1ai/analytics/Malyj-i-srednij-biznes-v-stranahEvropy>
8. <https://www.imf.org/external/pubs/ft/sdn/2015/sdn1504.pdf>
9. <https://stat.uz/uz/432-analiticheskie-materialy-uz/2031-o-zbekistonrespublikasida-kichik-biznes-va-xususiy-tadbirkorlikning-rivojlanishi>.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir: Xakimov Ziyodulla Axmadovich
Ingliz tili muharriri: Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich
Rus tili muharriri: Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li
Musahhah: Karimova Shirin Zoxid qizi
Sahifalovchi va dizaynerlar: Sadikov Shoxrux Shuxratovich
Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-yil, mart, 3-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: info@marketingjournal.uz
Bot: [@marketinjournlbot](https://t.me/marketinjournlbot)
Tel.: +998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. ГOCT 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**